

JAMOAT XAVFSIZLIGINI TA'MINLASHDA PROFILAYLING INSTITUTINING KONSTITUTSIYAVIY CHEGARALARI VA HUQUQIY MEXANIZMLARI

Bahriddin G'iyosov

*O'zbekiston Respublikasi Jamoat
xavfsizligi universiteti dotsenti, PhD*

Annotatsiya: Mazkur maqolada jamoat xavfsizligini ta'minlash jarayonida profilayling institutidan foydalanishning konstitutsiyaviy-huquqiy asoslari, uning qo'llanish chegaralari hamda inson huquq va erkinliklarini ta'minlash bilan bog'liq masalalar tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: Profilayling, jamoat xavfsizligi, konstitutsiyaviy huquqlar, inson huquqlari, huquqbuzarliklarning oldini olish, konstitutsiyaviy kafolatlar, huquqiy mexanizmlar.

Zamonaviy jamiyatda jamoat xavfsizligini ta'minlash davlatning eng muhim vazifalaridan biri hisoblanadi. Jinoyatchilikka qarshi kurashish, terrorizm va ekstremizm kabi xavfli hodisalarning oldini olish hamda huquqbuzarliklarning barvaqt profilaktikasini ta'minlashda turli zamonaviy usullardan foydalanish zarur bo'lmoqda. Shunday usullardan biri profilayling hisoblanadi. Profilayling shaxsning xatti-harakatlari, psixologik holati, ijtimoiy xususiyatlari yoki boshqa belgilarini tahlil qilish orqali ehtimoliy xavf darajasini aniqlashga qaratilgan usuldir.

Profilayling huquqbuzarliklarning oldini olish va xavf darajasini aniqlashda samarali vosita bo'lishiga qaramay, uning qo'llanishi Konstitutsiyada belgilangan shaxsiy daxlsizlik, tenglik, kamsitilmaslik va shaxsiy hayotning himoyalaniishi tamoyillariga muvofiq amalga oshirilishi lozim. Bu, albatta profilaylingni qo'llashda huquqiy mexanizmlarni takomillashtirish zaruratini keltirib chiqaradi. Biroq, profilaylingni qo'llash jarayoni bevosita inson huquq va erkinliklari bilan bog'liq bo'lib, uning noto'g'ri yoki nazoratsiz qo'llanishi shaxsiy hayot daxlsizligi, tenglik va kamsitilmaslik tamoyillarining buzilishiga olib kelishi mumkin. Shu sababli profilaylingni qo'llashning konstitutsiyaviy chegaralarini belgilash hamda uni huquqiy jihatdan tartibga solish dolzarb ilmiy-amaliy masalalardan biridir.

Profilayling institutining mohiyati va jamoat xavfsizligini ta'minlashdagi o'rniga nazar tashlaydigan bo'lsak, profilayling dastlab psixologiya va kriminologiya sohalarida jinoyatchining ehtimoliy portretini aniqlash maqsadida qo'llanilganligini, shuningdek, hozirgi kunda u huquqni muhofaza qiluvchi organlar faoliyatida keng qo'llanilayotganligini ko'rishimiz mumkin. Mazkur usul shaxsning xulq-atvori,

harakatlari, nutqi yoki boshqa belgilarini tahlil qilish orqali xavf darajasini baholash imkonini beradi.

Umuman olganda, jamoat xavfsizligini ta'minlash tizimida profilayling quyidagi vazifalarni bajarishi mumkin:

- ehtimoliy huquqbuzarlarni aniqlash;
- jinoyat sodir etilishining oldini olish;
- jamoat joylarida xavfsizlikni ta'minlash;
- terrorchilik yoki boshqa xavfli harakatlarni barvaqt aniqlash.

Shu bilan birga, profilayling faqat ehtimoliy xavfni aniqlash vositasi bo'lib, u shaxsning aybdorligini avtomatik tarzda belgilamaydi. Shu sababli profilayling natijalari boshqa dalillar bilan birgalikda baholanishi lozim.

Amerikalik huquqshunos olim D.Xarris profayling, ayniqsa irqiy profayling (racial profiling) inson huquqlariga jiddiy tahdid solishini ta'kidlaydi. Uning fikricha, huquqni muhofaza qiluvchi organlar faoliyatida profaylingga ortiqcha tayanish shaxslarning konstitutsiyaviy tenglik va daxlsizlik huquqlarini buzishi mumkin.[1] Yana u profayling amaliyoti huquqni muhofaza qilishda samarali usul sifatida ko'rilsa-da, uning keng qo'llanilishi jamiyatda ishonchsizlik va diskriminatsiyani kuchaytirishi mumkinligini ta'kidlaydi.

Bizningcha, bu amaliyot to'g'ridan to'g'ri konstitutsiyaviy huquqlar bilan bog'liq bo'lib, turli yo'nalishlarda o'zini ifodalashi mumkin. Shu bilan birga, bu masalaga profilaylingni qo'llashning konstitutsiyaviy chegaralari sifatida ham qarash noto'g'ri emas. Demoqchimizki, har qanday profilaktik yoki tezkor faoliyat inson huquqlari va erkinliklariga zid bo'lmasligi kerak. Konstitutsiyaviy huquqiy tizim shaxsning asosiy huquqlarini himoya qilishga qaratilgan bo'lib, profilaylingni qo'llash jarayoni ham ushbu tamoyillarga muvofiq bo'lishi zarur.

Zotan, profilaylingni qo'llashda quyidagi konstitutsiyaviy tamoyillar muhim ahamiyatga ega:

Tenglik tamoyili – fuqarolar irqiy, milliy, diniy yoki ijtimoiy kelib chiqishiga ko'ra kamsitilmasligi kerak. Profilayling jarayoni diskriminatsiyaga olib kelmasligi lozim. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasida[2] barcha fuqarolar bir xil huquq va erkinliklarga ega bo'lib, jinsi, irqi, millati, tili, dini, e'tiqodi, ijtimoiy kelib chiqishi, ijtimoiy mavqeidan qat'i nazar, qonun oldida tengdirlar. Imtiyozlar faqat qonunga muvofiq belgilanadi va ijtimoiy adolat prinsiplariga mos bo'lishi shart. Demak, imtiyoz beruvchi normalar konstitutsiyaviy jihatdan mustahkamlab qo'yilgan ekan, majburlor ta'sir chorasi hisoblanuvchi normalar ham Konstitutsiyaga mos bo'lishi lozim.

Shaxsiy hayot daxlsizligi – shaxsning shaxsiy hayoti, shaxsiy ma'lumotlari va boshqa sirlarini himoya qilish davlatning muhim majburiyatlaridan biridir.

Qonuniylik tamoyili – profilayling faqat qonun bilan belgilangan asoslar va tartibda amalga oshirilishi zarur.

Mutanosiblik prinsipi – xavfsizlikni ta'minlash maqsadida qo'llanilayotgan choralar inson huquqlariga nisbatan ortiqcha cheklovlarni keltirib chiqarmasligi kerak.

Bu masalaga hatto davlat xizmatchilarini qabul qilish va ularni lavozimga tayinlash bo'iycha ham yondashish mumkin. Misol uchun, xodimlarning xatti-harakatlaridagi anomaliyalarni aniqlash qobiliyati turli xil xavflarni minimallashtirishga yordam beradi. Bu qimmatli xodimning ishdan bo'shatilishining oldini olish, ma'lumotlar yoki aktivlarning o'g'irlanishining oldini olish va unumdorlikka xalaqit beradigan nizolarni aniqlash imkonini beradi. Bundan tashqari, avtomatlashtirilgan ish stantsiyasidagi g'ayrioddiy faoliyat akkauntini buzib kirish yoki xodim niqobi ostida infratuzilmada tajovuzkor ishlayotganini ko'rsatishi mumkin. Anomaliyalarni aniqlashdagi qiyinchilik shundaki, odamlar temperament, xarakter va shaxsiy xususiyatlar jihatidan farq qiladi. Va bir kishi uchun odatiy xatti-harakatlar boshqasi uchun mutlaqo g'ayrioddiy bo'lishi mumkin.

Olimlardan B.Xarkurt profayling xavfni bashorat qilishga asoslangan huquqni muhofaza qilish siyosati sifatida baholaydi. Uning ta'kidlashicha, profaylingga ortiqcha ishonish adolat prinsiplariga zid bo'lishi mumkin. Xarkurt profaylingning asosiy muammosi shundaki, u shaxsning individual xatti-harakatlaridan ko'ra, muayyan guruhga mansubligiga asoslanishi mumkinligini ta'kidlaydi. Bu kabi yo'nalishda F.Shauer o'z mulohazalarini bildirib, profaylingning huquqiy va mantiqiy tabiatini tahlil qilgan holda, uning ayrim hollarda amaliy foydasi bo'lishi mumkinligini tan oladi, ammo bu usul inson huquqlariga zid kelmasligi kerakligini ta'kidlaydi. U birmuncha boshqacha tarzda masalaga yondashgan bo'lib, Shauerining fikricha, profayling muayyan vaziyatlarda xavfni baholash vositasi bo'lishi mumkin, ammo uning qo'llanilishi qonuniy cheklovlar bilan tartibga solinishi shart.[3]

Bizning ushbu olimlarning fikrlariga nisbatan mualliflik qarashlarimiz ma'lum darajada boshqacha hisoblanadi. O'ylashimizcha, profaylingni faqatgina muayyan ijtimoiy yoki demografik guruhlariga nisbatan qo'llaniladigan usul sifatida talqin qilish uning haqiqiy mazmun-mohiyatini birmuncha cheklab qo'yadi. Aslida, profayling zamonaviy kriminologiya va kriminalistikada shaxsning individual psixologik xususiyatlari, xulq-atvori, harakatlar dinamikasi, vaziyatli belgilar va boshqa kompleks omillarni tahlil qilishga asoslangan tahliliy instrument sifatida qaraladi. Shu nuqtai nazardan qaraganda, profaylingning mohiyatini faqat statistik yoki guruhviy alomatlarga tayanadigan mexanizm sifatida baholash to'liq to'g'ri emas. Aksincha, uning samaradorligi ko'p jihatdan individual xulq-atvor tahlili, psixologik va kriminalistik modellashtirish usullari hamda axborot-tahliliy texnologiyalarning qo'llanilishi bilan bog'liq. Bunday yondashuv profaylingni diskriminatsion amaliyotga

aylanib ketishining oldini olish bilan birga, uning jamoat xavfsizligini ta'minlashdagi profilaktik imkoniyatlarini ham kengaytirishga xizmat qiladi.

Yuritgan ushbu mlohazalarimizni taniqli rus kriminalist olimi V.A.Obrazsov qo'llab o'tgan. Ya'ni, jinoyatchining psixologik portretini tuzish kriminalistika fanining muhim yo'nalishlaridan biridir. Uning fikricha, jinoyatni sodir etgan shaxsning shaxsiy xususiyatlari, psixologik holati, ijtimoiy muhiti va xulq-atvorini tahlil qilish orqali jinoyatchi haqida muayyan modelni shakllantirish mumkin. O'z ilmiy qarashlarining davomi sifatida jinoyat sodir etilgan holatni tahlil qilishda jinoyatning mexanizmi, usuli, izlari va jinoyatchining harakatlar ketma-ketligi muhim ahamiyatga egaligini, bu orqali ana shu ma'lumotlar asosida jinoyatchining ehtimoliy shaxsiy portreti shakllantiriladi. Bu esa, tergov jarayonida gumon qilinuvchilar doirasini qisqartirish va jinoyatni ochish samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.[4]

Bizning fikrimizcha, profayling institutiga nisbatan baholashda uning ehtimoliy salbiy oqibatlarini inkor etmagan holda, mazkur instrumentning jinoyatchilikka qarshi kurashish va jamoat xavfsizligini ta'minlashdagi amaliy ahamiyatini ham hisobga olish lozim. Chunki profaylingning to'g'ri tashkil etilgan va qonuniy asoslarda qo'llanilgan shakli huquqni muhofaza qiluvchi organlarga xavfli vaziyatlarni barvaqt aniqlash, ehtimoliy huquqbuzarliklarning oldini olish hamda resurslarni maqsadli yo'naltirish imkonini beradi.

Shu bilan birga, profaylingni qo'llash jarayonida uning konstitusiyaviy chegaralari aniq belgilab qo'yilishi muhim ahamiyat kasb etadi. YA'ni mazkur usul insonning sha'ni va qadr-qimmati, tenglik, shaxsiy hayot daxlsizligi hamda kamsitilmaslik kabi fundamental konstitusiyaviy huquqlarini buzmasligi shart. Shu bois profaylingni huquqni muhofaza qilish amaliyotida qo'llashda qonuniylik, mutanosiblik, obektivlik va shaffoflik prinsiplariga qat'iy rioya qilinishi lozim.

Bu yo'nalishda ayrim o'zbek olimlari ham ancha samaralai faoliyat olib borganlar. Jumladan, D.M.Mirazov, S.M.Selimanova va A.A.Ikanovlar bu masalaga jamoat xavfsizligini ta'minlash nuqtai nazaridan yondashganlar. Ular keltirib o'tgan statistik ma'lumotlarga ko'ra, 2018-yilda O'zbekiston "Amerika Gallup" instituti tomonidan dunyodagi eng xavfsiz beshta davlat qatoriga kiritilgan. O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligining rasmiy ma'lumotlariga ko'ra, 2024-yilda mamlakatda 132 298 ta jinoyat qayd etilgan, bu 2023-yilga nisbatan 27,1% ga o'sish demakdir. Jinoyatchilikning eng yuqori darajasi poytaxt Toshkentda qayd etilgan (har 10 000 aholiga 104,3 ta holat). 2025-yilda mamlakatda 10 154 ta o'g'irlik, 389 ta talonchilik va 119 ta qurolli talonchilik qayd etilgan.[5]

Yana ushbu olimlarning fikriga ko'ra, O'zbekiston Respublikasida istirohat bog'larining yuqori tirbandlikka ega ochiq dam olish maskanlari, bir nechta kirish joylari va murakkab landshaft tuzilmalari sifatidagi o'ziga xos xususiyati profillash

ishlarini tashkil etishga alohida talablar qo'yib, ham bu yo'nalishdagi empirik ma'lumotlarni to'plash va tizimlashtirish turli xil va o'lchamdagi parklarning operatsion xususiyatlarini, shuningdek, O'zbekiston Respublikasining madaniy va ijtimoiy xususiyatlarini hisobga olgan holda uslubiy tavsiyalar ishlab chiqish imkonini beradi.

Lekin bu masalaga kriminal profayling sohasidagi mashhur olimlardan biri bo'lgan B.Turvey yana o'zgacha tus berishni ma'qul ko'rgan. U profaylingni jinoyatni ochish va jinoyatchi psixologiyasini tahlil qilish vositasi sifatida ko'radi. Uning fikricha, profayling jinoyatni ochishda yordamchi instrument bo'lib, uni mustaqil dalil sifatida qabul qilish mumkin emas.[6] A.I.Dvorkin esa, kriminal profayling to'g'risida alohida qarashlarga ega. U jinoyatchining psixologik portretini tuzish jinoyatni tergov qilishda muhim kriminalistik instrumentlardan biri hisoblanishini ta'kidlaydi. Dvorkinning keltirishiga ko'ra, profayling bu jinoyat sodir etilgan holat, jinoyat mexanizmi va jinoyatchi tomonidan qoldirilgan izlarni tahlil qilish asosida jinoyatchining shaxsiy xususiyatlarini modellashtirish jarayonidir.[7]

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, profilaylingning nazoratsiz yoki noto'g'ri qo'llanilishi shaxsiy hayot daxlsizligi, tenglik, kamsitilmaslik hamda inson sha'ni va qadr-qimmati kabi konstitutsiyaviy tamoyillarning buzilishiga olib kelishi mumkin. Shu sababli profilayling institutini huquqiy jihatdan aniq tartibga solish, uning qo'llanish asoslari, chegaralari va nazorat mexanizmlarini belgilash dolzarb ilmiy-amaliy vazifa hisoblanadi. Profilayling instituti jamoat xavfsizligini ta'minlashda samarali vosita bo'lishi mumkin, biroq uning qo'llanilishi inson huquq va erkinliklarini ta'minlashga qaratilgan konstitutsiyaviy tamoyillar bilan uyg'un holda amalga oshirilishi lozim. Faqat shu holatda profilayling jamoat xavfsizligini mustahkamlash bilan bir qatorda demokratik huquqiy davlat tamoyillariga ham to'liq mos keladigan mexanizm sifatida shakllanadi.

Xulosa qilib aytganda, jamoat xavfsizligini ta'minlash jarayonida profilayling instituti zamonaviy huquqni muhofaza qilish amaliyotida muhim ahamiyat kasb etuvchi tahliliy instrument hisoblanadi. Ushbu usul ehtimoliy xavf manbalarini barvaqt aniqlash, jinoyatlarning oldini olish hamda huquqni muhofaza qiluvchi organlarning faoliyatini samarali tashkil etishda muhim yordamchi vosita bo'lib xizmat qiladi. Shu bilan birga, profilaylingni qo'llash jarayoni bevosita inson huquq va erkinliklari bilan bog'liq bo'lgani sababli uning amaliyotda qo'llanishi qat'iy konstitutsiyaviy-huquqiy chegaralar doirasida amalga oshirilishi zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Harris, D.A. Profiles in Injustice: Why Racial Profiling Cannot Work. New York: The New Press, 2002.
2. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. 19-modda. 2 va 3-qismlar // <https://lex.uz/docs/6445145>
3. Schauer, F. "Profiles, Probabilities, and Stereotypes." *Harvard Law Review*, 2003.

4. Образов В.А. Криминалистика: учебник. – Москва: Юристъ, 2011.
5. Миразов Д.М., Селиманова С.М., Иканов А.А. “Особенности применения профайлинга при обеспечении общественной безопасности в парках”. Практические и фундаментальные исследования. Том: 05 №: 01 (2026). с 8
6. Turvey, В.Е. Criminal Profiling: An Introduction to Behavioral Evidence Analysis. Academic Press, 2011.)
7. Дворкин А.И. Криминалистическая характеристика преступлений и личност преступника. – Москва: Норма, 2005.